

## ХАЛQ О'YINLARI – BOLALAR UCHUN HAYOT MAKTABI

Ro'ziyeva Nafisa Qurbonovna

Buxoro pedagogika texnikumi.

"Maktabgacha ta'lism" kafedrasini

Metodik fanlar o'qituvchisi

**Annotation:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning asosiy va yetakchi faoliyati o'yin orqali shakllanishi, pedagogik jarayonlarda o'yining tutgan o'rni va bolaning intellektual qiyofasini rivojlantirishi, o'zbek xalq bolalar o'yinlari, ularda o'zbekona milliy ruh bilan yo'g'rilgan jismoniy-tarbiyaviy va ma'naviy-axloqiy qarashlar yoritildi.

**Tayanch so'z va iboralar:** o'yin, o'yin orqali ta'lism tamoyillari, o'yining pedagogik texnologiyalari, didaktik o'yinlar, predmetli o'yinlar, o'yin turlari, harakatli o'yinlar, so'z o'yinlari.

Maktabgacha bolalik davri – inson hayotining qisqa davri bo'lsa ham, ammo bola shaxsining asosi shakllanadigan muhim va noyob davrdir. Chunki ushbu davrda iroda va ixtiyoriy xulq yuzaga keladi, tasavvur, ijod, umumiy tashabbus faol rivojlanadi. Bu davrda bola uni o'rab turgan atrof-muhit, hayot haqidagi birlamchi bilimlarni oladi, unda insonlarga, mehnatga bo'lgan aniq munosabatlar shakllanadi, lekin bu muhim sifatlar ta'lism mashg'ulotlarida emas, balki maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy yetakchi faoliyati bo'lgan o'yin orqali shakllanadi.

Maktabgacha ta'lism muassasalaridagi pedagogik jarayonlarda o'yining tutgan o'rni alohida bo'lib, o'yindan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lism berishda keng foydalilanadi. Zero,

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

- o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;

- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim-tarbiya berishning metod va usulidir.

O'yin nafaqat tengqurlar bilan muloqotni shakllanishiga yordam beradi.

Aynan o'yin jarayonida bolalar o'z xulqlarini boshqarishga – qoidalarga bo'ysunishga ko'nikma hosil qiladilar. Keyinchalik bu ko'nikmalar boshqa turdag'i faoliyatda ham namoyon bo'ladi. O'yinda namuna sifatida axloq me'yorlari emas (yoki kattalarning o'zga talablari), balki boshqa insonlarning obraziga taqlid qilinishi muhim. Shuning uchun bola o'z xulqiga namuna sifatida ko'radigan atrofidagi insonlar, ya'ni namuna olishga loyiq insonlar bo'lishi juda muhim.

Bolalarning boshqa faoliyatiga nisbatan o'yining afzalligi shundaki, bola o'z xohishiga ko'ra ma'lum bir qoidalarga bo'ysunadi. Va bu qoidalarga amal qilish bolalarga maksimal qoniqish va zavq olib keladi, uning irodasini tarbiyalaydi. Shuning uchun o'yin – bu maktabgacha yoshda bo'lgan bola o'zining tashabbuskorligi va ijodiy faolligini namoyon etadigan yagona yo'ldir.

Shu bilan birga, aynan o'yin harakatlari orqali bolalar o'zlarini nazorat qilishga va baholashga, nima qilayotganliklarini tushunib yetishga va, eng asosiysi, to'g'ri harakat qilish istaklarini o'rganadilar. Ba'zi syujetli o'yinlar (bekinmachoq, ona-bola, tosh urish) hozirgi kunga qadar saqlanib qolgani va hanuzgacha ommaviy bo'lishiga qaramasdan, bolalar ko'p hollarda o'yin qoidalarini bilmaydilar va ularga rioya qilishni majburiy deb hisoblamaydilar. Ular o'z xulqlarini va isataklarini komil inson obraziga yoki to'g'ri xulq-atvor me'yorlariga qiyoslamay qo'yadilar.

O'yin – bu bola faoliyatining shunday turlaridan biriki, kattalar uni maktabgacha yoshdag'i bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida, bolalar tomonidan turli predmetlarni qo'llashda hamda muloqot usullari sifatida qo'llaydilar. O'yin orqali bola shaxs sifatida rivojlanadi, uning keyinchalik o'quv va mehnat faoliyatida muvaffaqiyatga olib keladigan qirralari, insonlar bilan munosabatlari shakllanadi.

Masalan, o'yinda bolaning miqdoriy faoliyat vazifalarini hisobga olgan holda o'z faoliyatini boshqara olish xususiyati rivojlanadi. Asosiy yutuq sifatida jamoaviylik hissiga erishish hisoblanadi. Bu esa faqat bolaning ma'naviyatini baholabgina qolmay, balki uning intellektual qiyofasini tubdan o'zgartiradi, chunki jamoaviy o'yinda turli mazmun va ma'nolarning o'zaro ta'siri, vogelik mazmunining rivojlanishi va o'yinning umumiy maqsadiga erishish ro'y beradi.

O'yin – bu bola fikrlashining yettita turi: lingvistik, musiqa, mantiqiy, matematik, makon, jismoniy-kinestik, individual hamda ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan eng yaxshi tajribaga ega bo'lish usuli.

O'yin – bu bolalarning ishi bo'lib, bunda ular buyumlar qanday ishlashini bilib oladilar, muammolarni hal etadilar, qarorlar qabul qiladilar, o'z tafakkur va ijodkorliklarini oshirib, obyektlar o'rtaida o'zaro aloqa yaratadilar.

O'yinning eng muhim qismi – kattalar bilan muloqotga kirishishidir. Ular bolalarni o'ynashga rag'batlantirishlari, bevosita ishtirok etishlari va yo'naltirishlari kerak. O'yin orqali ta'lim olishda muvaffaqiyatga erishish kattalarga bog'liq.

O'yin bolalar beshikdaliklaridayoq hayotlariga kirib boradi: "Bordi-bordi"yu, "Havzak-havzak"lar bo'lib, shaqildog'-u tutanchiq singari o'yinchoqlar bo'lib, bolalar ulg'aygan sayin o'yinlari ham beshikdan uyga, uydan hovliga, hovlidan ko'chaga, keng maydonlarga ko'cha boradi, ham shaklan, ham mazmunan murakkablashadi, hayotning barcha qirralarini muqallidan ilg'ay boradi, qolaversa, hatto bolalarning jinsiga ko'ra tafovut hosil qila boshlaydi, kechki yoki kunduzgilikdan iborat vaqt tamoyilini kasb etadi, hatto yilning qaysi faslida o'ynalishi qat'iylasha boradi. Shu tufayli bolalikning har bosqichiga muvofiqlashgan o'z o'yinlari bor; qizlarning o'g'il bolalardan, o'g'il bolalarning esa qizlardan farq qiladigan, ayni zamonda har ikkala jinsning aralash holda o'ynashlariga muvofiqlashgan o'yinlari turkumlashgan. Ularning faqat bahorda, faqat yozda, faqat kuzda yoki faqat qishda o'ynaladigan turkumlari shakllangan. Bu, albatta, u yoki bu o'yinning fasllar o'zgarishi bilan yuz beradigan mehnat

jarayonlari, ularga daxldor urf-odatlar, irim-sirimlarga muqallidiy xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelganligi oqibatidir. Shu bois poliz qo'riqchiligi, bog'dorchilik, chorvachilik, quruvchilik, kulolchilik, ovchilik, baliqchilik, novvoylik, pazandachilik, harbiy va boshqa kasb-u korlarga muqallidan yuzaga kelgan o'yinlar bisyordir.

Shuni ta'kidlash joizki, majburiylik – o'yin tabiatiga yot. U bolalardagi ijodkorlik salohiyatini so'ndiradi. Shu bois bolalar qaysi o'yinni istasalar – uni ixtiyoriy tanlaydilar. O'yin tanlash – o'yin maylini, zavqini yuzaga keltirishi shart. Shundagina bolalar shunchaki o'ynamaydilar, balki o'yinda yashaydilar, o'yin ular uchun olamshumul zavq-u shavqqa, turmush darsligiga aylanadi.

O'yinlarning turmush darsligi sifatidagi mohiyatini anglash – bolalarda unga nisbatan mas'ullik tuyg'usini, o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilish burchini shakllantirgan. Shu boisdan bolalar o'yin intizomiga qat'iy amal qiladilar. Shu zaminda asrlar davomida o'yinlarning o'z ichki qonuniyatları shakllanganki, bu bolalarning ahillik, hamkorlik, birodarlik, tezkorlik, chaqqonlik, epchillik, bardoshlilik, matonatlilik, jamoatchilik, topqirlar fazilatlarini tarbiyalovchi mohiyat kasb etishini ta'minlagan. Shu zaminda o'yinlar ko'p vazifali hodisaga aylangan: ular hayot sabog'i sifatida ijtimoiy mazmun kasb etsa, bolalarni jismonan va ma'nani chiniqtirib, axloqiy-tarbiyaviy vazifani o'tagan. Shu fazilati bilan etnopedagogik vazifa bajargan.

O'yin intizomiga qat'iy amal qilish – bolalarda burch va mas'uliyat tuyg'usini uyg'otadi, shu fazilati tufayli bolalarda huquqiy ong kurtak yozilishiga zamin tayyorlanadi. Bolalar jamiyatdagi o'z mavqelarini idrok qila boradilar.

O'yinlarda harakat ritmik mutanosiblikka ega. Bu, o'z navbatida, harakatga omuxta ritmik o'ynoqi qo'shiqlar vositasida bolalarda go'zallikni his qilish malakasini shakllantiradi, ularda go'zallik tuyg'ularini junbushga solib, estetik vazifani bajaradi.

Qolaversa, bolalar o'yinning o'zigagina emas, balki uni boshlash va yakunlashga ham alohida ahamiyat beradilar. Avvalo, birgina bolaning o'zi yolg'iz holda kamdan kam o'ynaydi. Garchi o'zbek bolalari o'yinlarida yolg'iz

bolaga mo'ljallangan o'yinlar bor ersa-da, behad kam. O'yinlarning aksariyati ikki va undan ortiq bola faoliyatiga mo'ljallangan. Shu boisdan o'ynagani ko'chaga chiqqan yolg'iz bola darhol sherik izlashga tushadi. Tengqurlarini o'yinga chorlaydi. Aytish mumkinki, o'yin ana shu chorlamdan boshlanadi, aslida.

O'yinlarda harakat ikki vazifani ado etadi: birinchisi – bola tanasi va a'zolarini jismoniy jihatdan chiniqtiradi, bolani epchil qiladi, chaqqonlikka, tezkorlikka, chidamlilikka, uddaburonlikka, o'z kuchiga ishonishga o'rgatadi; ikkinchisi – bolalarni mushohada qildirtiradi, ma'naviy nigohini o'tkirlashtiradi, teranlashtiradi, kutilmagan qarorlar qabul qilishga chog'laydi, xullas, har ikkala holatda ham topqirlikka o'rgatadi, ham jismoniy, ham ma'naviyligi mohiyatiga ko'ra o'zbek xalq bolalar o'yinlarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

- 1.Harakatli o'yinlar;
- 2.Ma'naviy (so'z) o'yinlar.

O'zbek bolalar repertuarida qo'shiq kompozitsiyasiga aylangan o'yinlar butun bir silsilani tashkil etadi: "Yashirganimni top", "Oltin darvoza", "Mehmon-mehmon", "Besh tosh", "Bozor-bozor", "Quvlashmachoq", "Kim chopag'on?", "Mushuk-sichqon" va boshqalar ana shunday xarakterga ega.

Xalq dahosi yaratgan bolalar o'yinlari asrlar davomida navqiron naslni chiniqtirish va tarbiyalash vazifasini o'tab kelmoqda. Ularda xalqning an'anaviy turmush tarzida sinalgan, o'zbekona milliy ruh bilan yo'g'rilgan jismoniy-tarbiyaviy va ma'naviy-axloqiy qarashlar o'z aksini topgan.

### **Adabiyotlar:**

1. "Maktabgacha yoshdag'i bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim asoslari", Toshkent-2015
2. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o'qitish metodikasi. T., 2007 y.
- 3.Oxunjon Safarov "O'zbek xalq bolalar o'yinlari". "Sharq" NMAKBT, Toshkent-2013.